

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

TILIMIZNING TILLA SANDIG‘IDAGI ISTE‘MOLI KAM BO‘LGAN ESKI MAQOL NAMUNALARINING TAHLILI.

Tursunova Shalola
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo‘rg‘on filiali
stajyor-o‘qituvchisi,
ushbu filialning 2-bosqich talabasi
Qosimova Go‘zal

Annotatsiya: Xalqimizning nutqi azaldan turli maqollar, iboralar va tasviriy ifodalar bilan bezangan hamda ijodkorlikka boy hisoblanadi. Qaysi soha vakili bo‘lmasin har bir inson tilimizda o‘zining kasbi, faoliyati, nutqiga mos bo‘lgan maqollarni topish va o‘rnida qo‘llash imkoniyatiga ega. Afsuski, mana shunday durdonalarimizdan ba‘zilari nutqimizda kam ishlatilmoqda yoki butunlay iste‘moldan chiqib ketgan. Ushbu maqolamizda ulardan bir qismini keltirib tahlil qilishni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, ibora, lingvopoetika, tahlil, xalq durdonalari.

LINGUOPOETIC FEATURES OF OLD PROVERBS THAT ARE RARELY USED AMONG THE PEOPLE.

Abstract: The speech of our people has long been decorated with various proverbs, expressions and figurative expressions and is considered rich in creativity. Regardless of the field of activity, every person in our language has the opportunity to find and use proverbs that are suitable for their profession, activity, and speech. Unfortunately, some of these masterpieces are rarely used in our speech or have completely fallen out of use. In this article, we aim to cite and analyze some of them.

Keywords: proverb, saying, phrase, linguopoetics, analysis, folk gems.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СТАРИННЫХ ПОСЛОВИЦ, РЕДКО УПОТРЕБЛЯЕМЫХ В НАРОДЕ.

Аннотация: Речь нашего народа издавна украшена различными пословицами, идиомами, образными выражениями и считается богатой на творчество. Независимо от сферы деятельности, у каждого человека есть возможность найти и применить пословицы на нашем языке, соответствующие его профессии, деятельности и речи. К сожалению, некоторые из этих шедевров редко используются в нашей речи или вовсе

вышли из употребления. В этой статье мы постараемся проанализировать некоторые из них.

Ключевые слова: пословица, поговорка, выражение, лингвопоэтика, анализ, народные жемчужины.

Kirish. Azaldan o‘zbek xalqi o‘z nutqida turli xil mavzudagi xalq maqollaridan, so‘zlarni ixcham shaklga keltirilgan mazmundor shakli bo‘lmish iboralardan keng foydalanadi. Davrlar almashinishi, turmush tarzining o‘zgarishi va hayotning taraqqiy etishi sabab tilimizda mavjud bo‘lgan ko‘plab maqollar iste’moldan chiqib borishi kuzatiladi. Ammo biz ularni yoshi ulug‘ keksalarning nutqida uchratishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada ba’zilarini mazmuni saqlanib qolgan ko‘rinish shakli o‘zgargan xolos, ba’zilar esa ham shakl ham mazmun jihatdan ham o‘zgarishsiz keksa avlod vakillari, chekka hududlardagi shevalar tarkibida ishlatilib kelinmoqda. Ushbu maqolamizda mana shu xususida so‘z yuritamiz.

Tahlil va natijalar. "Qari bilganni Pari bilmaydi" deyishadi. Bu ayni haqiqat. Yoshi ulug‘ kishilarning suhbatlari asosida nafaqat maqollarning nodir namumalarini balki qadim folklor janrlarining turli varyanlari, xalqimiz hayotida ilgari mavjud bo‘lgan urf-odatlar haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Ba’zi maqol namumalari otaxon-onaxonlarimiz yashagan davr, muhit, jamiyat, hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lsa ba’zilar zamon bilan hamnafas, insonlar bilan hamqadam, necha zamonlar o‘tsada, o‘zining mazmundorligini, ma’no mohiyatini, salohiyatini yo‘qotmaydi. Quyida ulardan birqanchasini tadqiq etamiz.

1. Kuning tuman bo‘lsin,

Kasaling tumov.

Bu maqolda hayotda inson boshiga tushadigan tashvishlar, sinovlar qisqa muddatli bo‘lsin, ya’ni tumandek tez tarqaluvchi bo‘lsin deyilmoqda. Ikkinchi misrada endi bevosita inson tanasida kechadigan bemorlikning ham eng yengili nazarda tutilmoqda.

2. Sichqon sig‘mas iniga,

G‘alvir bog‘lar dumiga.

Bu maqolda xalq orasida uchraydigan kambag‘al-tantilar nazarda tutilgan. Ushbu maqolning mazmuni bugungi kunda salbiydan ijobiyga o‘zgargan bo‘lib “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” ma’nosini beradi.

3. Uyda o‘zim to‘xtamas,

Qizlar meni maqtamas.

Bu maqol aylanishni, “qidirish”ni yaxshi ko‘radigan kishilarga nisbatan ishlatilgan. Bir bahona topib ko‘chaga chiqish, mehmomdorchiliklarni yoqtiruvchi insonlarga nisbatan ishlatiladi.

5. Haftada bir bozor,

Uni ham yomg‘ir buzar.

Biror bir kunni intiqlik bilan kutuvchi va ishi aksidan kelgan, rejalari chippakka chiqqan insonlarga nisbatan ishlatiladi.

6. Bozor boradi Sarivoy,

Yotib keladi yarim oy.

Bu bir joyga borsa hayallaydigan kishilarga nisbatan aytiladi.

7. Jon jonga kuyar,

Bejonlar kimga kuyar.

Bu maqolda qarindosh, jondosh kishilarning bir-birlariga bo‘lgan oqibati, aka-uka, opa-singillikning qadr-qimmati ulug‘lanmoqda.

8. Bolali eshak soyga sig‘mas.

Bu purhikmat so‘zlar zamirida turmushi o‘xshamagan juvonning holati aks etgan.

9. Bolalini beli tinar,

Bolasizni beli sinar .

Bu maqolni Bolang o‘ngga kirdi,

Uying songa kirdi, maqoli davom ettiradi.

10. Mo‘ltonidan botir chiqsa, chodirga olov qo‘yar.

Bu maqolning mazmuni shuni so‘zlaydiki, bir nodon kishini el orasida obro‘ topib, bir mansab egasi bo‘lganida, mansabidan foydalanib o‘z qavmiga jabr yetkazishi nazarda tutilgan.

11. Bir ko‘chgan, bir talangan .

Bunda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chgan kishining xuzur-halovatini yo‘qotishi nazarda tutilgan. Ushbu maqolning sinonimi sifatida “Kambag‘alman desang, ko‘chib ko‘r”ni keltirish mumkin.

12. Er urug‘ "savatbosh",

Xotin urug‘ "ilonbosh".

Er va xotinning qarindoshlari ichida, xotin urugning, ularning uylariga tez-tez mehmon bo‘lib kela olish, erkinlik hissi, har qanday vaziyatda uyga “sig‘ib” ketishi xotin urug‘ning “ilonbosh” deyilishiga sabab bo‘lgan. Er urug‘ning ham “savatbosh” deyilishi ham ana shundan kelib chiqqan.

14. Burarim burar ,

Burmasim ko‘tarib urar.

Bu maqolda bir biriga qondosh, qarindoshlarning bir biriga mehribonchiligi nazarda tutilgan.

15. Bitta qiz ,yalagan tuz.

Ushbu maqol mazmunida yakka qizning avaylab o‘stirilgani, uni avaylashgani hamda bu qizning duolari ham tez qabul bo‘lishi nazarda tutilgan.

16. Zo‘rniki Tegirmon yurg‘izadi.

O‘jar, qaysar, aytganini qanday bo‘lmasin qildiradigan kishilarga nisbatan ushbu maqol ishlatiladi.

17. Ona qo‘ynida,

Ota bo‘ynida. Bu maqolning mazmunida farzandlar tarbiyasi, ularning ta‘minoti, ro‘zg‘or masuliyati, tashvishlarining oiladagi taqsimoti nazarda tutilayapdi.

18. Beusulni boqqa qo‘ysang, bog‘ni vayron qiladi .

Uquvsizlarga qarata aytilgan maqol mazmunida har bir ishni ustasi, mohiri bo‘lish kerakligi aytilmoqda.

19. Bir tayoq baxt,

Bir tayoq badbaxt.

Oilaviy kelishmovchiliklar natijasida yuzaga keluvchi maqol.

20. Ishkamadan go‘sh t bo‘lmas,

Begonadan do‘st bo‘lmas .

Maqolini olaylik. Ishkama - ya‘ni yeyish uchun mo‘ljallab so‘yilgan jonliqning qorin qismi. To‘g‘ri u ham yeyishga yaroqli qism hisoblanadi, lekin lahm go‘sh t bo‘lmaydi. Ikkinchi bandini oladigan bo‘lsak, kishiga har qanday yaqin bo‘lmasin, eng go‘zal insoniy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirmasin , baribir begona , begonaligini qiladi degan mazmun yotibdi. Shu o‘rinda ya‘na bir xalq tilidagi eski maqollardan biri o‘rinli sanaladi:

21. O‘zingniki o‘zagiga tepsang ham ketmaydi,

O‘zganiki kishmish bersang ham turmaydi.

22. Erga qarading, yerga qarading.

Uddaburon xotinlarning o‘zlaricha dimog‘dorona so‘zlari.

23. Mehmon kelsa mushtdaygina,

Qaytib ketsa qushdaygina,

3-4 kunlab uy to‘rida,

Ko‘zlari boyqushdaygina.

Mehmondorchiligi cho‘zilgan mehmonga nisbatan qo‘llaniladigan maqol.

Ijodkorlik xalqimizning qon-qoniga singib ketganligi bois maqollar ichida nafaqat ichki qofiyalanish, balki yuqoridagi kabi to‘rtlik talablariga to‘la javob beradiganlari ham anchagina.

24. Men qilaman to‘qqiz,

Xudo qiladi o‘ttiz.

Hozir iste‘molda bo‘lgan –

“Yugurgani emas,

Buyurgani bo‘ladi” maqoli quyidagi hikmatli so‘zni sharhlaydi.

25. Otimni o‘lishini bilsam ,bir qop unga almashardim.

Natijasi ko‘ngildagiday chiqmagan ishdan so‘ng, pushaymonlikda ishlatiladi.

26. Qish o‘ldirma yoz o‘ldir ,

Och o‘ldirma to‘q o‘ldir.

Ma‘nosi: Har qanday ishdagi qulay sharoitni so‘rash.

27. Kun Ko‘rmagan kunduz kuni chiroq yoqib o‘tirarmish.

28. Ikki xotin non pishirar,

Yarimini xom pishirar.

29. Meni baxtim Jo‘shni bozorini buzadi.

30. Kiyimsizni tushiga ikki qarich bo‘z kirarmish.
Har bir kishiga o‘ziga taalluqli narsalarni keltirish.
31. G‘aribga voy -voy ham ko‘p.
32. Qishni ko‘zi ko‘r.
33. Qishni kunida To‘lg‘ay odim uzayadi.
34. Uyida un osh kesmagan, birivnikida dastalarmish.
35. Somoni loymi,
Halisa moymi.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi hamisha bebaho xalq mulki sanalgan. Ushbu hikmatli so‘zlarning tub ma’nolari xalqimizning naqadar hozirjavob, ziyrak va donoligidan darak beradi. Shunday ekan nafaqat tilshunoslar, balki har bir til vakili ularni yo‘qolib ketishidan saqlash, iste’moldan chiqayozganlarini tadqiq etib, jamlash va imkon qadar tilimizga qaytarishga mas’ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek xalq maqollari” X. Suvonqulova “Adabiyot uchqunlari”, Toshkent. 2014.
2. ЖЎРАЕВА БИБИШ МУҲСИНОВНА. ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ ВА ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. АВТОРЕФЕРАТИ. Самарқанд – 2019 17-20 бетлар.
3. Mo‘minjon Sulaymonov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” - “Namangan” nashriyoti 2012-yil.
4. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov “O‘zbek folklori” - Toshkent “Tafakkur bo‘stoni” 2020.
5. Omonulla MADAYEV "O'zbek xalq og'zaki ijodi" - Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2010.
6. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov “Ma’nolar maxzani” - T., 2001